

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI
MUSIQA, BADIY GRAFIKA VA MEHNAT TA'LIMI
FAKULTETI
«KASBIY TA'LIMNI O'QITISH METODIKASI»
kafedrası**

**Mehnat va kasb ta'limini o'qitish metodikasi
fanidan referat va kurs ishlarini bajarish
bo'yicha uslubiy tavsiyalar.**

Samarqand 2015

Tuzuvchi-mualliflar:

Kasbiy ta'limni o'qitish
metodikasi o'qituvchilari:

Muranov B.I.

Igamov.S.S

Nuriddinov A.E

Taqrizchilar:

SamDU «Pedagogika» fakulteti
«Maktabgacha ta'lim metodikasi»

kafedrasini mudiri, p.f.n. dotsent:

B.B.Doniyev.

Samarqand shahar 5-sonli UO'TM
direktori, p.f.n. dotsent: R.A.Aminov

Ushbu metodik tavsiyanoma Mehnat va kasb tanlashga yo'llashni o'qitish metodikasi fanidan referat va kurs ishlarini bajarish bo'yicha 3-4 bosqich talabalari va mazkur fanlar o'qituvchilariga mo'ljallangan bo'lib, mazkur ishlarni bajarishni takomillashtirishga xizmat qiladi. Undan boshqa gumanitar yo'nalishdagi fanlarda tahsil olayotgan ta'lim oluvchilar va ta'lim beruvchilar foydalanishlari ham mumkin.

Ushbu metodik tavsiyanoma «Kasbiy ta'limni o'qitish metodikasi» Kafedrasining 2014 yildagi 29.01.54- sonli va Musiqa, badiiy grafika va mehnat ta'limi fakulteti O'UKning 2014 yil 30.01.dagi 3-sonli yig'ilishida muhokama qilingan va ma'qullangan

KIRISH

O'zbekiston respublikasi mustaqillikka erishgach, ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyotning barcha sohalarida turli xil islohatlar amalga oshirildi. Davlatning kelajak ravnaqini belgilaydigan yoshlar ta'lim – tarbiyasi ham uzluksiz ravishda tashkil etiladigan bo'ldi. Uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida, jumladan oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimida ham tubdan shaklan va mazmunan yangilanishlar amalga oshirildi.

O'zbekistonda yangidan bir necha oliy o'quv yurtlari ochildi, mavjudlari ham mazmunan va shaklan qayta qurildi, bakalavriyat va magistratura shaklida ta'lim olib borila boshlandi.

Oliy ta'lim mazmunida o'quv mashg'ulotlari yangi pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish, kompyuter texnologiyalaridan samarali qo'llash masalalari ko'rib chiqildi.

Oliy ta'lim jarayonida o'quv mashg'ulotlari bilan bir qatorda mustaqil, ijodiy, laboratoriya, seminar, tugarak mashg'ulotlariga ham keng o'rin ajratiladi. Talabalarning o'quv, mustaqil, amaliy, laboratoriya va nazariy mashg'ulotlardan olgan bilim, ko'nikma va malakalari turli xil yozma ijodiy ishlarda (kurs va diplom loyihalari (ishlari), maqolalar, tezislar, metodik va elektron ishlanmalarida bayon etiladi, rejalashtiriladi).

Ushbu uslubiy tavsiyanomada talabalarning mustaqil ijodiy faoliyati namunalaridan hisoblangan referat va kurs ishlari (loyihalari) bajarish tartiblari, talablari, ularni rasmiylashtirish va himoya qilish qoidalari to'g'risida so'z yuritiladi. Referatlar va kurs ishlarini bajarishga qo'yilgan talablari, yoritish, ularni rasmiylashtirish yo'llari, shakllarini bayon qilish ushbu tavsiyanomaning maqsadi hisoblanadi.

1.Kurs va referat (loyihalari) ishlarini bajarishga qo'yiladigan talablar mazmuni.

Talabalarning mustaqil, yozma, ijodiy ishlariga quyidagilar kiradi:

1.Hisobotlar; 2. Maqolalar, tezislar; 3. Ma'ruzalar; 4. Kurs, referat ishlari (loyihalari); 5. Diplom ishlari (loyihalari); 6. Turli tajriba-sinov ishlarida ishtirok etish; 7. Turli xil ijodkorlik (texnikaviy, tasviriy va amaliy san'at, musiqa va b.) uyushmalarida ishtirok etish.

8. Amaliy o'quv, ma'naviy, tarbiyaviy topshiriqlarni bajarishda ishtirok etish. 9. Turli xil laboratoriya, seminar, mustaqil mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish.

Barcha talabalarning ijodiy, mustaqil ishlarini bajarishda quyidagi izchillikka rioya qilish lozim bo'ladi:

1. Mavzuning dolzarbligini aniqlash;
2. Muammoning ishlanganlik darajasini belgilash;
3. Kurs va referat ishlarini mavzularini yangilash;
4. Ishning nazariy ahamiyati;
5. Ishning amaliy ahamiyati;
6. Ta'lim-tarbiyaning amaliyot va hayot bilan birligi;
7. O'tkazilgan tajriba-sinov ishlari texnologiyalari.
8. Olingan natijalar tahlili.
9. Natijalarni qo'llanilish ko'lamini, bosqichlari, sohalarini;

10. Muammoning ob'ekti, predmeti, aniq ko'rsatilishi;
11. Natijalarni amaliyotga joriy etishda YaPT, IPT, YaAT va ICHT lardan foydalanish shakllari.
12. Ishlarni bajarishda bosqichma-bosqichlikka, uzviylikka, uzluksizlikka rioya qilinishi.
13. Chiqarilgan xulosalar va taklif, tavsiyalarning hayotiyligi, amaliyligi, ishlab chiqarish, xalq xo'jaligi taraqqiyoti sohalari bilan bog'liqligi.

2. Kurs va referat (loyihalari) ishlarining bajarilishda amal qiladigan ta'limiy va tarbiyaviy talablar.

1. Kurs (referativ) ishlarninig bajarilishida mavzu muammosining dolzarbligini aniqlashda quyidagilarga e'tibor qaratiladi:

Mavzu tarixiy taraqqiyotida jamiyat, davlat, xalqlar va sohalar rivojlanishidagi o'rnini belgilash. Pedagogika, psixologiya, ta'lim-tarbiya tizimida tutgan o'ri. Metodika xususiy fanlarni o'qitishdagi muammolar bilan bog'liqligi. Nazariya va amaliyotdagi, amalga joriy etish texnologiyalari, metodikalari, an'anaviy va noan'anaviy uslublar (metodlar) orasidagi egallagan o'ri. Qonunlar, qarorlar, buyruqlarda ushbu muammoning aks etganligi va boshqalarga qarab belgilanadi.

2. Muammoning ishlanganlik darajasini aniqlashda shu sohaning tarixiy rivojlanishi taraqqiyotida buyuk mutafakkirlar, qo'lyozma, toshbosma manbalar, buyuk siymolar va hamda allomalarning shu sohadagi fikrlari, arxiv materiallarida bayon etilishi, sohaning etakchi olimlarining asarlaridagi nazariyalar va g'oyalar, qonuniy me'yoriy hujjatlarda o'quv metodik muammoning qo'yilishi, shu muammoni hal etishda uchrayotgan ziddiyatlar, nomutanosibliklar, murakkabliklar bayon etiladi. Shuningdek, ushbu muammoning darsliklar, qo'llanmalar, metodik va elektron ishlanmalarning ahvoli ham bayon etiladi. Kurs va referativ ishlar mavzularining yangiligi darajalari mahalliy, hududiy, mintaqaviy davlatva xalqaro miqyosida bo'lishi mumkin.

3. Yangilik darajalarini belgilashda ko'pchilik hollarda mutaxassis ekspertlari ko'rigiga, nazoratiga murojaat qilish kerak bo'ladi. Chunki, mualliflar muammolarning echimlarini topish yo'llarini izlar ekan ishning yangiligi darajasini chuqur va atroflicha qiyosiy tahlil etmasdan yirikroq darajada deb o'ylaydilar, yoki, aslida yirik darajada yangilik yaratilgan bo'lsada, uni kichik yoki quyi darajada deb o'ylaydilar. Shuning uchun mutaxassis ekspertlar ko'rik xulosalari, taklif va tavsiyalari kerak bo'ladi.

4. Ishning nazariyadagi ahamiyatini yoritishda shu sohadagi ilgari yaratilgan nazariyalar, g'oyalar va ta'limotlardagi o'ri yoritiladi. Shu sohadagi allomalar, etakchi olimlar, mutaxassislar fikrlari bilan qiyosiy ravishda taqqoslanadi. Qonunlar, qadriyatlar, qonuniyatlar, davlat va hukumat, Prezident farmonlaridagi o'ri aniqlanadi.

5. Ishning amaliy ahamiyatini belgilashda ta'lim-tarbiya, madaniyat, ma'rifat va san'atdagi o'ri aniqlanadi. Uzluksiz ta'lim tizimida, bosqichlarida ta'lim muassasalarida o'quv tarbiyaviy jarayondagi, mashg'ulotlar va tadbirlarni tashkil etishdagi, takomillashtirishdagi o'ri aniqlanadi.

6. Yaratilgan g'oyalarning ta'lim-tarbiya jarayonida, hayotda, ishlab chiqarishda, iqtisodiyotda, ijtimoiy – siyosiy o'zgarishlarning qaysi qismida qo'llanilish sohalari va shakllari belgilab beriladi. O'quvchi-yoshlar, talabalar va boshqa ta'lim oluvchilar va ta'lim beruvchilarning mahoratlarini (kasbiy, pedagogik, metodik) rivojlanishdagi o'rni aniqlanadi.

7. Yaratilgan g'oyalar tajriba-sinovlarda belgilangan reja, dastur va metodikalar asosida tasdiqlovchilik, shakllantiruvchilik, aniqlovchilik maqsadlarida o'tkaziladi. Tajriba sinovlar materiallari namunalari keltiriladi.

8. Olingan natijalar umumiy va xususiy holda qiyosiy tahlil qilinadi, pedagogik, psixologik, metodik maqsadlar asosida matematik-statistik jihatdan qayta ishlanadi. Har bir natijalarni formulalar yordamida javallar, grafiklar, gistogrammalarga qo'yilib, qiyoslanadi (lozim bo'lsa). Respondentlar soni 25-30 nafardan kam bo'lmasligi lozim.

9. Olingan natijalarning ta'lim-tarbiya tizimining qaysi bosqichida, qaysi uslubda, qaysi shakllarda qullanilishi to'g'risida aniq taklif va tavsiyalar beriladi.

10. Muammoning va natijalarning qo'llanilish ob'ektlari va predmetlarini ko'rsatishda metodika, pedagogika va ta'lim-tarbiyaning qaysi sohasini rivojlantirishga xizmat qilishi aniq belgilanadi, chunki, fanlarni o'qitish metodikasidan ishning ob'ekti va predmetini belgilashda shakllanayotgan shaxsning qaysi hislat va fazilatlarini takomillashtirishdagi qaysi BKM larini rivojlantirishdagi o'rni va ahamiyati yoritib boriladi.

11. Ishning amaliy va nazariy ahamiyatini ko'rsatishda qaysi YaPT (yangi pedagogik texnologiyalar), IPTlar (ilg'or pedagogik tajribalar). YaAT (yangi axborot texnologiyalar), ICHT (ishlab chiqarish texnologiyalar) ning qaysi shakllaridan samarali foydalanish yo'llari ko'rsatiladi.

12. Ishlarni bajarishda bosqichma-bosqich bajarilishi, qaysi ta'lim bosqichining qaysi qismida qanaqa shakllaridan foydalanish mumkinligi yoritiladi.

13. Xulosalar faktlarga mos holda chiqariladi. Taklif va tavsiyalar hayotga, ishlab chiqarishga, muammoning echimlarini topishga muvofiq holda chiqariladi.

3. Mehnat ta'limini o'qitish metodikasidan kurs ishi mavzulari.

1. O'simlik tolasidan tayyorlangan gazlamalar, ularning xususiyatlari gazlamaning ung va teskari tomonini, buylama va kundalang iplarini aniqlash.

2. Qul ishlari haqida umumiy ma'lumot va ishlatiladigan asbob - uskunalar.

3. Qul choklaridan namunalarni tayyorlash.

4. Qul yuritmalik tikuv mashinalarining tuzilishi va asosiy qismlari ish urnini tashkil qilish.

5. Mashinada ipsiz tikish, ochiq va yopiq qirqimli choklar.

6. Gavdadan ulchov olish. Fartuk va rumol chizmasini chizish.

7. Fartuk tikish.

8. Xalq hunarmandchiligi tug'risida umumiy ma'lumot.

9. Kashtachilikda ishlatiladigan naqsh elementlari va chok turlari.

10. Milliy kiyimlardan qiyiqchani bichish va tikish.

11. Milliy buyumlardan choyshab (palak) bichi shva tikish.

12. Jun va ipak tolali gazlamalarning olinishi va xossalari.
13. Furnitura haqida umumiy ma'lumot.
14. Oyoq yuritmalik tikuv mashinalarining tuzilishi va ularni ishga tayyorlash.
15. Tikuv mashinasidagi kamchiliklarni tuzatish.
16. Beldan kiyiladigan kiyimlar turlari. Ularga ulchov olish.
17. Yubka andazasini chizish va modellashtirish.
18. Yubkani tikish birinchi primerkaga tayyorlash.
19. Yubkaning etak qismiga ishlov berish va bezatish.
20. Zarduzlik san'ati tarixi va uning rivojlanishi.
21. Zarduzlikda ishlatiladigan asboblari va uskunalari.
22. Zarduzlik usulida kuz oynak g'ilofini tayyorlash.
23. Sun'iy va sintetik gazlamalarning xossalari, ularga quyiladigan talablar.
24. Elektr yuritmalik tikuv mashinalarining tuzilishi, ishlatilishi.
25. Kuylak andozasini chizish va loyixalash.
27. Pazandachilik tarixi va taraqqiyoti, oziq ovqat mahsulotlarining ozuqaviy qiymatlari.
28. Oziq ovqat mahsulotlari bilan ishlash xonalarining talablari va jihozlanishi.
29. Sabzavotlarga birlamchi ishlov berish, asbob va moslamalardan foydalanib ularni tug'rash.
30. Gaz plitasi va elektr plitasining tuzilishi va ahamiyati.
31. Taom, salat qamda yaxna gazaklarni tayyorlash va bezatish uchun qullaniladigan sabzavotlarni badiiy usullarda kesib tayyorlash.
32. Olive salati va sabzavotli vinegretrlarni tayyorlash va dasturxonga tortish.
33. Tuxumli taomlarni tayyorlash va dasturxonga tortish.
34. O'zbek milliy oshxonasining tarixi va uziga xos xususiyatlari.
35. Milliy oshxonada tayyorlanadigan shirin taom va ichimliklar

Texnologiya va dizayn yunalishi.

1. Yog'ochning xalq xujaligidagi ahamiyati, yog'ochning tuzilishi va turlari, ishlatilish sohalari.
2. Duradgorlik dastgohining tuzilishi va undan foydalanish.
3. Ulchash va rejalash asboblari, arra turlari.
4. Yog'ochga ishlov beradigan stanoklar va ular haqida tushuncha.
5. Duradgorlik buyumlarini cirtini pardoqlash va konstruksiyalash.
6. Yog'ochdan uy ruzg'or buyumlaridan juvani tayyorlash.
7. Yog'och uymakorligida qullaniladigan asbob-uskunalar, naqsh turlari.
8. Uyma naqsh turlaridan namunalar chizish va tayyorlash.
9. Duradgorlik asboblariidan unumli foydalanish.
10. Duradgorlik buyumlarining detallrini biriktirish usullari
11. Duradgorlik buyumlarini sirtini pardoqlash va oxirgi ishlov berish.
12. Yog'och uymakorligi san'ati uning uziga xos hususiyatlari
13. Yog'och uymakorligi usulida buyum tayyorlash.
14. Yog'ochga ishlov berishda materialshunoslik bulimi.
15. Parmalash asboblariining turlari tuzilishi ishlatilishi.
16. Yog'ochga ishlov beradigan tokarlik stanokli tuzilishi texnik xavfsizlik qoidalari.

17. Yog'ochdan mahsulotlar ishlab chiqarish texnologiyasi.
18. Qora va rangli metallar ularning turlari va qullanilishi.
19. Metalga ishlov beradigan asbob – uskunalar, moslamalar ularning tuzilishi va vazifasi.
20. Metallga ishlov berishda qullaniladigan stanoklar ularning turlari tavsifi texnika xavfsizlik qoidalari.
21. Yupqa tunuka metaldan buyumlar tayyorlash.
22. Metallarga ishlov berish asosida milliy hunarmandchilik mehnatlari.
23. Chilangarlik, zargarlik, pichoqchilik mehnatlarida qullaniladigan ish usullari.
24. Metallarga ishlov berish asosida hunarmandlar tomonidan tayyorlangan buyumlarning asosiy turlari.
25. Simdan buyumlar tayyorlash.
26. Qora metallning asosiy mexanik xossalari.
27. Ulchov va rejalash kurollari.
28. Tokarlik vint qirqish stanogining vazifasi, qullanilishi.
29. Tokarlik ishlariga muljallangan moslamalar.
30. Metaldan buyum tayyorlash.
31. Frezerlash stanogi, uning qismlari tuzilishi.
32. Elektrotexnik ishlar.

4. Kasb tanlashga yo'llash fanidan kurs va referat ishlari mavzulari.

1. «Ta'lim tug'risida»gi Qonun «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» nechanchi yil qabul qilingan?
2. Mamlakatimizda mavjud bulgan umumta'lim maktablari qanday maktablar deyiladi?
3. Majburiy ta'lim necha yillik qilib belgilangan?
4. 9 yillikdan keyingi ta'lim qanday ta'lim deyiladi?
5. Boshlang'ich sinflarda kasb tanlashga oid bulgan tushunchalar urgatiladimi?
6. Kasb tanlashga yullash nechanchi sinfda aniq rejalashtiriladi?
7. Kasb tanlashga yullash bosqichlari necha bosqichdan iborat?
8. Kasb tanlashga yullash shaxs xislatlari qanday?
9. Kasb haqidagi fazilatlar nechanchi sinfdan shakllantiriladi?
10. Mehnat ta'limi darslarining qancha foizi amaliy mashg'alot?
11. O'quvchilarning qaysi fanlarni urganishida kuproq kasblar haqida ma'lumotlar beriladi?
12. Boshlang'ich sinflarda uquvchilar qanday materiallar bilan ishlaydi?
13. Kasb tanlashga yulashning ikkinchi bosqichi nechanchi sinflarga tug'ri keladi?
14. Kasb tanlashga yulashning uchinchi bosqichi nechanchi sinflarga tug'ri keladi?
15. Yoshlarning kasblarga qiziqishini og'zaki metodda qanday qilib aniqlanadi?

16. Kasb tanlashga yullash vazifalari nechanchi sinflarda amalga oshiriladi?
17. O'quvchilarning kasb tanlashida matbuotning roli bormi?
18. O'quvchilarning kasb tanlashida uqitishning texnikaviy vositalarining roli qanday?
19. Kasb diagnostikasining maqsadi nima?
20. Kasb diagnostikasi xususiyatlari qanday buladi?
21. Tibbiy maslahat nima?
22. Kasbga oid konsultasiya ishlarining asosiy formalarini tushuntiring.
23. Perfokarta nima?
24. Maktab shifokorining uquvchilar kasb tanlashidagi roli.
25. Psixologning kasb tanlash ishlarida ishtirok etishi nimalarga e'tiborni qaratishda qaysi usullardan foydalaniladi?
26. O'quvchilarning kasb tanlashida uqitishning qaysi metodlari samaraliroq?
27. Kasb tanlashda uchinchi bosqich qanday ataladi?
28. Kasbiy adaptasiya necha etapga bulinadi?
29. Adaptasiya nima?
30. Kasbiy adaptasiya nechta guruhga bulinadi?
31. Kasbiy adaptasiya qaysi guruhlarga bulinadi?
32. Mehnat jamoasiga moslashtirish jarayonini necha xil tartibda utkazish mumkin?
33. Mehnat jamoasiga moslashtirish jarayoni qanday buladi?
34. Yosh ishchining muvaffaqiyatli moslashishi nimalarga bog'liq?
35. Kasb adaptasiyalarini sanang.
36. Assimiliyasiya nima?
37. Kasb ta'limiga oid bulgan tugaraklar uquv yili davomida haftasiga ikki soatdan utilsa necha soat buladi?
38. Kasb ta'limi metodlari deganda nimani tushunasiz?
39. Kasb ta'limi metodlarini nechtaga bulish mumkin?
40. O'qituvchi materialni og'zaki bayon qilishida qaysi kursatmali qurollaridan foydalanish mumkin?
41. Og'zaki bayon qilish metodining kamchiligi qayerda?
42. Suhbat metodi nima?
43. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi nechta bobdan iborat?
44. «Ta'lim tug'risida»gi Qonun nechta bobdan iborat?
45. Respublikamizning qaysi viloyatida qadimiy kasb hisoblangan pichoqsozlik va pichoqchilik kasbi keng tarqalgan?
46. Respublikamizning qaysi viloyatida qadimiy kulolchilik kasbi keng tarqalgan?
47. Respublikamizning qaysi shahrida dunyoga mashhur non pishiriladi?
48. Respublikamizda qadimiy zarduzlik qaysi shahri hisoblanadi?
49. Respublikamiz maktablarida «Kasb tanlashga yullash» kabinetlari tashkil qilinayaptimi yoki yuqmi?
50. O'quvchilar mustaqil kuzatishlarini nechta bulakka bulish maqsadga muvofiq?

51. Har bir uquvchi ish bajarish jarayonida vaqtni ulchash uchun nimalardan foydalanadi?

52. Kurgazmali metodda kurgazmali qurollarni namoyish qilish nimalarni nazarda tutadi?

53. Ekranli qullanmalarga nimalar kiradi?

54. I.Karimovning «Badiiy hunarmandchilikni shakllantirish» haqidagi farmoni qachon qabul qilingan?

55. Kasb usullariga oid mashqlarni bajarish vaqtida qanday talablarga rioya qilinadi?

56. Dars jarayonida maktab mikro uchastkalariga uyushtirilgan ekskursiya qancha vaqt davom etadi?

57. Darsdan tashqari mashg'ulotlardagi ekskursiyalar qancha vaqt bulishi mumkin?

58. Kitob buyicha yoki uqituvchilarning suzlarida eslab qolish yuli bilan kuchli uquvchilar taxminan necha foizni uzlashtirishi mumkin?

59. O'quvchi mehnat va kasb ta'limidan laboratoriya mashg'ulotlarini topshirish paytida yozma hisobot topshiradimi?

60. Texnik mehnat qaysi turlarga bulinadi?

61. «Ta'lim tug'risida»gi Qonun nechta moddadan iborat?

62. Psixolog-pedagoglarning ilmiy-tadqiqot natijalariga kura malakaning shakllanish jarayoni qaysi sxemada tug'ri kursatilgan?

63. Kunikma nima?

64. Mahorat nima?

65. Shoir Sakkokiy qaysi kasb bilan shug'ullangan?

66. Payg'ambar hazrati Dovud qaysi kasb bilan shug'ullangan?

67. Al Forobiy qaysi kasbni tuliq egallagan va shug'ullangan?

68. Milliy xalq hunarmandchiligining asl namunalarining bizgacha qancha xili saqlanib qolgan?

69. Sinf rahbari tomonidan kasbga yullashda qanday ishlar olib boriladi?

70. Maktabda uquvchilarni kasb tanlashga yullashda maktab kutubxonasiining roli.

71. Milliy hunarmandchilik nima?

72. Qadimda hunarmandchilik necha turga bulingan?

73. Qadimda hunarmandchilikning qaysi turlari rivojlangan?

74. Eng birinchi pulat mahsulotlari qayerda ishlab chiqarilgan?

75. Qadimda eng birinchi shoyi matosi qaysi davlatda ishlab chiqarilgan?

76. Kulolchilik charxining vatani qayer?

77. Yevropada uyushgan shahar hunarmandchiligi nechanchi asrda paydo bulgan?

78. Mehnat ta'limi va kasbga yunaltirish ta'limi mazmuni necha yunallishlarga bulinadi?

79. Amaliy hunarmandchilik tarmoqlariga nimalar kiradi?

80. Mehant ta'limi fani mazmunini kursating?

81. VIII sinf mehnat ta'limi uquv rejasida kasbga yullash ishlari necha soat?

82. IX sinf mehnat ta'limi uquv rejasida kasbga yunaltirishga necha soat ajratiladi?

83. Kasb tanlashga yullash buyicha barcha ishlarni shartli ravishda qanday bosqichlarga bulish mumkin?

84. Dars jarayonida kasb tanlashga oid bulgan tushunchalar beriladimi?

85. V-VIII sinf uquvchilari turg'un kasb tanlay oladimi?

86. O'quvchilar bilan sanoat ishlab chiqarish korxonalariga ekskursiyalar uyushtirish sanoat ishlab chiqarish kasb tanlashida qanday ta'sir kursatadi?

87. Maktabda kasb tanlashga oid bulgan tugaraklarda uquvchilar soni qanchagacha bulishi pedagogik-metodik jihatdan tug'ri deb uylaysiz?

88. Maktab kasb tanlashga oid bulgan tugaraklarga qanday qabul qilinadi?

89. Qadimda paxta tolasi bilan mato tuqiydigan dastgohlar qayerda vujudga keldi?

90. Uquvchilarga tanlangan kasblarga oid tavsiyalar kim tomonidan beriladi?

91. Kasb tanlashga yullash nechanchi sinfda asosiy urinni egallaydi?

92. Ishlab chiqarish asoslari «Kasb tanlash» kursi nechanchi sinflarda urganiladi?

93. Respublikamiz viloyati maktablarida asosan mehnat va kasb ta'limiga oid bulgan qaysi tugaraklar tashkil qilinadi?

94. Mehnat va kasb ta'limiga xos bulgan xususiyatlarni belgilang.

95. Mehnat ta'limi uqituvchisi uquvchilarni kasblar bilan tanishtirishda qanday bosqichlardan foydalanadi?

96. Ishlab chiqarish korxonalariga ekskursiyalar necha bosqichda buladi?

97. Kasblarga chuqurroq urganish uchun uyushtiriladigan tadbirlar ichidagi ijobiysi qaysi bulishi mumkin?

98. Utkaziladigan tadbirlarda qatnashadigan uquvchilar soniga qarab qanday bulaklarga bulinishini belgilang?

99. Shoir Zavqiy qaysi kasb bilan tirikchilik qilgan?

100. Hunarmandchilik dehqonchilikdan qaysi asrlarda ajralib chiqqan?

5. Kurs va referat ishlarini rasmiylashtirish qoidalari.

**UZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**MUSIQA, BADIY GRAFIKA VA MEHNAT TALIMI
FAKULTETI**

**“KASBIY TA'LIMNI O'QITISH METODIKASI”
KAFEDRASI**

Fan : « _____ »
_____ fanidan

KURS ISHI

Mavzu: _____

Bajardi: _____

Ilmiy rahbar : _____

Samarqand - 2015

Mundarija

Kirish	2
1.Kurs va referat (loyihalari) ishlarini bajarishga qo'yiladigan talablar mazmuni:	2
2. Kurs va referat (loyihalari) ishlarining bajarilishda amal qilinadigan ta'limiy va tarbiyaviy talablar :.....	3
3. Mehnat ta'limini o'qitish metodikasi kurs ishi mavzulari.....	4
4. Kasb tanlashga yo'llash fanidan kurs va referat ishlari mavzulari.....	6
5. Kasb ta'limidan kurs ishlari mavzulari.....	
6. Kurs va referat ishlarini rasmiylashtirish qoidalari.....	10
7.Xuosa	